

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

NAVOIY LIRIKASIDA MA'SHUQA UZVLARINING ARAB HARFLARI BILAN IFODALANISHI

Maftuna TURAYEVA

Buxoro davlat universiteti, Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
email: tmaftuna933@gmail.com

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14806561>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mumtoz she'riyatda ma'shuqa portretini gavdalantirib berishda arab harflarining keng qo'llanilishi asoslab beriladi. Yor uzvlari - somatizmlar bilan arab harflarining shakliy o'xshashligi hamda o'ziga xos nazokati haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: qad, zulf, la'l, soch, tish, barmoq, qosh, ko'z, kokil, xol.

Аннотация: В данной статье обосновывается широкое использование арабских букв при воплощении портрета возлюбленного в классической поэзии. Высказываются мысли и комментарии о сходстве форм арабских букв с соматизмами и уникальной тонкости алфавита.

Ключевые слова: высота, зульф, губа, волосы, зуб, палец, бровь, глаз, форма, счет.

Annotation: In this article, the widespread use of Arabic letters in embodying the portrait of a lover in classical poetry is justified. Thoughts and comments are made about the similarity of shapes of Arabic letters with somatisms and the unique delicacy of the alphabet.

Keywords: height, ringlet, lips, hair, tooth, finger, eyebrow, eye, mold, score.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda badiiyat, fasohat, nazokat masalalari hamma vaqt qalam ahlining diqqat markazida bo'lgan. Jumladan, shoirlar arab harflarining shaklidan unumli foydalanib, lirk asarlarda yor siyomosini chizishda bu harflarning imkoniyatlari, zohiriyl va botiniy ma'no qirralarini kashf etib, o'ziga xos ifoda uslublarni yaratishgan. Ana shu harflar orqali ma'shuqaning turli uzvlari, qolaversa, oshiqning ruhiy holatini ham bayon qilishgan.

Hazrat Navoiy qalamiga mansub bo'lgan quyidagi baytda, hayratdan xandon otib turgan yorning lablari orasiga barmog'ini ushlab turgan holati tasvirlanadi. Barmoqlar shakliy jihatdan "alif"ga qiyoslanadi. Ma'lumki, arab yozuvida "jon" kalimasini yozishda "alif" harfi ham so'zning o'rtasidan o'rinn oladi. Navoiy mana shu o'xshashlikni payqay oladi:

Bormog'i hayrat bilakim la'li xandon ichradur,

Ul "alif" yanglig'durkim filmasal "jon" ichradur [1.144].

جان so'zidagi harflarning o'rinalashishiga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, alif "Jim" va "nun" harflarining o'rtasida joylashgani ravshanlashadi.

Qadmudur bu yo erur shingarf ila yozg'on alif,

Belmu yo toreki, la'l ichra anga taskin erur [1.175].

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ushbu baytda shoir tajohilu orif—“*bilib – bilmaslikka olish*” san’atidan foydalanib, yor haqidagi mulohazalarini badiiy quvvatlantirgan. Qadmi bu yoki qizil rang bilan bitilgan alifmi, belmi va yo mayin tolami deb yorining qaddu qomati raso, alifdek tik va qildek ingichka ekanini ma’lum qiladi.

Alisher Navoiy harflar shaklining yor uzvlari bilan o‘xshash jihatlarini kashf etib betakror ifodalar yaratdi:

Har “alif” sarv edi, “he” g“unchavu “dol”i sunbul,

Demayin nomaki, bir toza guliston toptim [1.377].

—^{۲،۳} bular “*alif*”, “*ha*”, “*dol*” harflaridir. Baytda “alif” tik o‘suvchi *sarv* daraxtiga, “ha” harfi g“unchaga”, “dol” esa *sunbulga* qiyoslanmoqda. Arab alifbosida “ha”harfi yakka kelganda g“uncha bilan o‘xshashlik hosil qiladi. Ta’kidlash joizki, ushbu harfning faqat yakka yoziladigan ko‘rinishiga diqqat qaratish lozim. Bunda o‘zidan oldingi harflarga ulanmaydi. Baytdagi sunbul deganda lola bargiga o‘xshash, uzun bargli o‘simlik nazarda tutilgan. Uning barglari uzunligi bois qayrilma shaklda bo‘ladi. Shu bois hazrat Navoiy sunbulning qayrilma barglari bilan dol harfini bir-biriga qiyoslaydi.

Quyidagi baytda yorning bir necha uzvlari-*qoshi*, *qomati*, *zulfı* harflar timsolida tavsif etiladi:

Kokulungdur mushku ustida girih mushk uzra “mim”,

Qomating shamshodu zulf ostida tushgan “dol” erur [1.188].

Dastlabgi baytda xushbo‘y, ayni chog‘da, chimirilgan qoshlar ustida kokul borligi xabari beriladi. Shoir mana shu chimirilgan qoshlarni “mim”ga tashbih qiladi. Keyingi misrada yor qomati shoxi *shamshod daraxtiga*, uning zulflari ostidan tushgan soch (zulf)ining shaklini *dol* harfiga qiyoslaydi.

Quyidagi bayt ham ajoyib ifodaga ega

Lomiki, vasl ayog‘ig‘a topmishtur ittisol,

Ul “lom”durki, o‘rtag‘a olmish oni “balo”[1.62].

Bunda Navoiy birinchi misrada arab alifbosidagi “lom” harfiga izoh beradi. U Vasl-و اصل so‘zining ayog‘ida (oxirida)dir. Keyingi misrada yana buni aniqroq qilib – بالا – “balo” ning o‘rtasidadir,-deb yorqin ko‘rsatib beradi.

Tararda uhdalik zulfin musalsal ayladi chinlar,

Girih “mim”, ikki zulfı ikki “lom”, iynak tarog“sin”lar [1.137]

Ushbu baytning nasriy bayoni quyidagicha: Jingalasimon sochlar majburlik bilan zulfini zanjirdek qildi, natijada tugunlar hosil bo‘ldi. Bundagi tugunlar-، ikkita zulfı-، sochlarni taragan taroq esa-سـ harfini eslatadi. Sochning chinligi, zulflarning “lom” harfidek egilganini, buyum-narsa-taroq tishlarini “sin”ga o‘xshashligini hazrat Navoiy mayin tashbehlarda ifodaladi.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Sunbuling tushsa oyog‘ing ostida, ne aybkim,
“Gul” bila “xurshid”ning ostida “lom”u “dol”i bor [1.153].

Dastlabgi baytda ma’shuqa qo‘lidan sunbul gulining oyog‘i ostiga tushib ketgani xabari beriladi. Bu holatni Navoiy Ҳўлий va Ҳўлий тарбия so‘zlarining ayog‘ida (oxirida) “lam”, “dol” borku,-deb ma’lum qiladi. Ma’shuqa bilan sodir bo‘lgan mazkur tasodifiy holatni ilmiy dalil asosida izohlab, shoir juda go‘zal ifodani yarata olgan. Baytda “xurshid” so‘zi istiora bo‘lib, u yorning chehrasini bildiradi.

Anbarin qoshing hamida xoldek ko‘z mardumi,
Mushki tardin nuqtayi sulsiydurur nun ustina [1.602].

Baytda yorning anbardek xush isli qoshlari ham, xoldek (shakliy hamda xoldek qoraligiga ko‘ra) ko‘z qorachig‘ing ham maqtovga loyiqidir, xushbo‘ylikda ko‘zlarining nun ustidagi nuqtadekdir,-mazmuni ifodalanadi. Ҷ – nun harfining egilgan tomonini qoshga, tepasidagi nuqtani ko‘zga tashbih qilish an’ana hisoblanadi. Biroq mazkur an’anani o‘zgacha ifodalar bilan tasvirlash ijodkorning buyuk mahoratini ko‘rsatib beradi.

Quyida keltirilgan parchada ma’shuqaning *tishlari* “sin” harfiga qiyoslanishi bilan bir qatorda, bu harfning izohi ham keltiriladi:

No‘shxand etganda la’lingdin ko‘rinnishmu tishing,
Anglamon, yoxud asal ichra yozilg‘on “sin”mudur?[1.195].

Oshiq yorining shiringina tabassum qilganida lablari orasidan tishlari ko‘rinishini aytib, bu tishlar unga “sin” harfini eslatishini ma’lum qiladi. Ҳўлий – “asal” so‘zidagi sin(س) harfi, oshiq aytganidek, kalimaning o‘rtasidan o‘rin olgan.

Quyida keltirilgan baytda ham ma’shuqaning *ko‘zu qoshlari* “nun” harfiga, *zulflari* “dol”ga qiyoslangan. Baytda mazkur an’ananing o‘ziga xos ifodada, o‘ziga xos ohangda va o‘ziga xos uslubda bitilganini ko‘ramiz:

Ko‘zu qoshing biaynih nargiz boshinda “nun”,
Zulfung ayog‘ing ostida chun vard ayog‘i “dol”[1.347].

Ҷ – ko‘zu qosh, zulf esa әdir. Baytda “istiora” mavjud bo‘lib, bu yor jamolining vard–atirgulga qiyoslanishi bilan yuzaga kelgan. Ma’lumki, atirgulning poyasi egik, qayrilma bo‘lib ketadi. Mana shu hayotiy haqiqatni shoir yorining zulfi uning oyog‘igacha tushib, qayrilib turgani bilan muqoyassa qilib, nihoyatda betakror tasvirni yaratadi.

Zulfungda xol “jim” arosindag‘i nuqtadek,
Yuzungda zulf “vard” yonindag‘i “dol” ekin[1.425].

Mazkur baytda ma’shuqaning zulfi orasidagi *xoli* “jim”dagi nuqtaga–ҵ, *zulfni* esa–әga o‘xshatadi. Hayratlanarlisi shundaki, ma’shuqa zulfining chehrasidaligi bilan

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MERO SINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

atirgul yonida egri–qiyshiq ekinlar o'sganini ifodalashi shoirning kashfiyotidir. Yuzni atirgulga qiyoslash “istiora”ni hosil qilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Sharq mumtoz she’riyatida arab harflari vositasida ramziy haqiqatlar siri bayon etilgan. Bu harflar zamirida yashiringan fikrlar orqali ma’shuqaning biror uzvi shakliy o‘xshashlik asnosida tavsif etilgani kitobxonga estetik zavq uyg‘otadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

(Использованная литература/ References):

1. Alisher Navoiy. Mukammalar asarlar to‘plami. XX jildlik. 1-jild. Badoye ul-bidoya. - Toshkent:Fan, 1987.-689b.
2. Amonova Z., Boqiyev A. Saif Zafari Buxoriyning «Durrul majolis» asarida shayxlar talqini // Tamaddun nuri jurnali. – 2024. – T. 10. – №. 61. – C. 202-206.
3. Amonova Z., Axrorova Z. “Nasoyim ul muhabbat” da Imom G‘azzoliy talqini //Alisher Navoiy and XXI asr. – 2024. – T. 1. – №. 1.
4. Amonova Z. et al. The teachings of Hurufism and Nasimi’s poetic skills //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 538. – C. 05037.
5. Amonova Z., Boqiyev A. Saif Zafari Buxoriyning " Durrul majolis" asarida Odam (as) talqini //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2024. – T. 2. – №. 2.
6. Navoiy asarlari lug‘ati. Tuzuvchilar: P.Shamsiyev va S.Ibrohimov. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1973.–784b.